

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 3 - 9-oktabr N:40 (66529)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

Yaqinda «Sen yolg'iz emassan» Respublika bolalar jamoatchilik jamg'armasining tashabbusi bilan matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun OITS (SPID) epidemiyasining sabab va oqibatlariga bag'ishlangan trening mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Tadbirni jamg'arma direktori Javlon Egamberdiyev kirish so'zi bilan ochdi. Jamg'arma o'quv markazi direktori Galina Smirnova, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi maslahatchisi Komiljon Karimov va shu tashkilot xodimlaridan Sergey Surov, Nodir Kuzdekov, Galina Fomaidilar ma'ruza qildilar. Yig'ilish tinglovchilarda katta qiziqish uyg'otdi hamda ular muammoni yoritishda yangicha yondoshuvlar bilan ham tanishib oldilar.

XODINGDA TUS!

Xastalik o'pishganda,
qo'l berib ko'rishganda,
quchoqlashganda,
odamning terisi bexosdan birovga tegib ketsa,
ich kiyimlar va kiyim-kechak orqali,
yo'tal va aksirganda,
ko'z yoshi va ter orqali,
hasharotlar chaqqanda,
sun'iy hovuzda cho'milganda,
hammomda va unitaz orqali,
umumiy idish-tovoqdan foydalanganda yuqmaydi.

GIYOHVANDLIK - OFAT

Hozirgi kunda Afg'oniston dunyo bo'yicha giyohvand moddalar yetishtiruvchi eng katta rekord ko'rsatkichlarga erishmoqda.

Giyohvand moddalarga nasha va uning quritilgan bargi va shoxchalari (marixuana), poya va barglaridan yig'ib olingan shirasi (gashish), ko'knori, heroin, kokain kiradi. Bular tarkibiga qarab turli darajada ta'sir etadi. Dastlab odam giyohvand moddani iste'mol etganda o'zini yengil, muallaq holatda his etadi. Muamimolarini unutganday bo'ladi. Unda beixtiyor ko'tarinki kayfiyat, raqsga tushishga xohish, g'ayritabiiy kulgu paydo bo'ladi. Oqibatda inson o'zining qanday qilib

KELAJAK ZAVOL TOPMASIN

U OITV va OITS, yuqumli kasalliklar va virusli gepatit V hamda S ga keng yo'l ochib beradi.

OITV - bu odam immuntanqisligi virusi bo'lib, u kasal odamdan sog'lom odamga yaxshi tekshirib, zararsizlantirilmagan qonni quyish, homilador ayoldan bolaga, nashavandlar sterillanmagan umumiy shprisdan foydalanganda, jinsiy yo'l orqali, tibbiyot asbob-uskunalarini yaxshi dezinfeksiya (yuqumsizlantirish) qilinmaganda (ya'ni, stomatologik, xirurgik, ginekologik) shuningdek, sataroshxona asboblari - qaychi, ustara, tirnoqlarni parvarishlash uchun ishlatiladigan arrachalar zararsizlantirilmaganda, bemorning so'lagi va qoni teridagi mikrotravma (kichik shikast, yoriqlar)ga tushsa ham yuqadi. Odam aybsiz aybdor bo'lishi mumkin. Bu xastalik virusi odam organizmiga kirgach, uning immunintizimini ishdan chiqaradi va har qanday xastaliklar oldida immuniteti pastligi sabab ojiz qoladi.

OITS /SPID - odam immuntizimi tanqisligi sindromi. Simptom kasallikning belgisi bo'lsa, sindrom bir necha belgilar yig'indisidan iborat bo'ladi. Agar OITV virusi organizmga kirgach, odamning immuniteti kuchli bo'lsa, ya'ni u sport bilan shug'ullansa, 10-20 yilgacha ham yashashi mumkin. Mabodo inson ichuvchi, chekuvchi va nashavand bo'lsa, OITVdan sal o'tmay OITS rivojlanadi va odam uzoq yashamaydi.

Bu virus inson organizmida o'n va undan ko'p yillar yashasa ham uning immuniteti kuchli bo'lsa, belgi bermaydi. Bu davrda bemor tashqi ko'rinishidan sog'lom va baquvvat bo'lishi mumkin, ammo boshqalarga xastalikni yuqtirishadi. Kasal bo'lmashlik uchun sog'lom turmush tarzi, shaxsiy gigiyenaga amal qilish va albatta shifokor va sataroshlarning o'z ishiga mas'uliyat bilan yondoshishlari katta ahamiyatga ega.



TAMAKI NIMA O'ZI, AMAKI?..

Evropada tamaki chekish tarixi 1560-yilga borib taqaladi. O'shanda portugaliyalik va

ispaniyalik dengizchilar Lotin Amerikasidan Fransiya quritilgan o'simlik bargini olib kelishgan va bu zaharli o't Tiobako degan mustamlaka provinsiya nomi bilan atalgan. Tamaki bargidagi asosiy alkaloid bo'lgan nikotin esa Portugaliyaga fransuz qiroli elchi qilib yuborgan Jan Niko nomi bilan ataladi. Avvalo «bezarar» ko'ringan tamaki «janoblari»ning tarixiga bir nazar tashlasak:

Mashhur sayohatchi Xristofor Kolumb XV asrda Markaziy Amerikadan Evropaga notanish giyoh o'simligining urug'i va bargini keltirgan edi. Uni mahalliy hindular shifobaxsh deb chekishlarini ko'rgan yevropaliklar ham o'z qavmdoshlariga tavsiya eta boshlashgan. Hozir tamaki tutunidan o'pkasi «ilmatshik» bo'lgan juda ko'plab kashandalar Kolumbga bu kashfiyoti uchun rahmat demasa kerak.

Birinchisi bo'lib bu o'simlik Evropada shved tabiatshunosi Karl Linney tomonidan o'stiriladi. Tamaki tutuni tarkibida nikotin, oltingugurt, ammiak, azot, is gazi, chumoli kislotasi va inson organizmi uchun zararli yana ko'plab moddalar mavjud.

Bizda mahalliy aholi hamda kashandalar o'rtasida nos chekish urf bo'lgan. Nosga tamaki bargi va kul, yog' solinishini bilasizmi? Kulning tarkibidagi ishqoriy moddalar esa og'iz shilliq qavati saratoni(raki)ni keltirib chiqaradi.

Endi aziz bolajonlar tamakini bezarar deb chekkan o'smirlar giyohvand moddalarga qiziqmasligiga kim kafolat beradi?!



ILLATNING ILDIZI

Aziz bolajonlar! Hammangiz mustaqillikka intilasiz, ammo mustaqil bo'lish uchun inson moddiy va ma'naviy tomondan yetuk bo'lishi, o'qib, o'rganishi, kasb-hunarli bo'lishi lozim. Ayrim yoshlar esa «Mustaqil hayotga qadami»ni kattalarga taqlid qilishdan boshlashadi. Bu taqlid ijobiy

bo'lsa, xo'p-xo'p... Salbiy bo'lsa-chi? Misol uchun bolalarning arziyasini sho'xligi bo'lib ko'ringan tamaki chekishi asta-sekinlik bilan katta tashvishlarni keltirib chiqaradi. Yig'ilishda o'tirib bir dahshatli voqeani eshitdim. Ya'ni, Qozog'istonda 9 yashar giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bola aniqlanibdi. Bu bolaga oz-ozdan giyohvand moddani rezina saqich ichiga joylab berishgan ekan. Sho'rlik ota-ona voqeadan xabar topganida ancha kech bo'lgan. Bolakay narkolog-shifokor yordamiga muhtoj holga tushgan. Yengil hayotga orzumand yigit va qizlar, mehnatga bo'yni yor bermaydigan sayoqlar, boshi berk ko'cha «vakil»lari-giyohvandlar tuzog'iga osongina ilinadilar. Talabchan ota-ona, bobo-buvi nazoratida bo'lgan, sport bilan oshno bolalar esa hayotda o'z o'rinlarini topishda qoqilmaydilar. Ruhshunoslarning aniqlashicha, ko'pincha irodasi bo'sh, mustaqil fikrga ega emas, dangasa, ota-onasiga suyanib qolgan yoki notinch oila farzandlari muammolar yechimini ichish yoki chekishda deb bilishar ekan...

Gulchehra SHIRINOVA
tayyorladi.



Atrofimizni o'rab turgan juda oddiy va shu bilan birga o'ta murakkab bo'lgan tabiatning hali ochilmagan sir-sinoatlari, yechilmagan jumboqlari va hayratomuz mo'jizalari juda ko'p. Siz bolajonlar orasida ham g'ayrioddiy o'simlik va hayvonot dunyosining sir-sinoatlarini bilishga qiziquvchilar ko'plab topilsa kerak-a?

«Istiqlol umidlari» to'garagimiz a'zolari orasida ham tabiat shaydolari talaygina ekan. Quyida e'tiboringizga ana shu tengdoshlaringiz to'plagan tabiat hodisalari haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni havola qilamiz. Sizdan ham shunday mazmundagi xatlarni kutib qolamiz.

To'garak rahbari Feruza JALILOVA.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA, SHO'IM qoshidagi «Yosh jurnalist» to'garagi a'zosi: QUSHLARNING QULOG'I BORMI?

Qushlar uchuvchi jonivorlar bo'lgani uchun ularning har bir a'zosi bu jarayon uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'tkir nigoh ularning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun ham ularning ko'zi boshqa hayvonlarnikidan ancha katta bo'ladi. Ulardan ayrimlari turli tasvirlarni har bir ko'zi bilan alohida ko'ra olsa, boshqalari uzoqdagi juda kichik zarralarni ham bemalol ko'ra olish qobiliyatiga ega. Ularning yana bir xususiyati - ta'mni yaxshi idrok etishdir. Biroq, qushlarning hech birida hid bilish sezgisi mavjud emas. Eshitish qobiliyati esa juda kuchli. Bu ularning biz payqamaydigan yashirin quloqlari ham borligidandir. Aynan shu quloqlar orqali bir-birlarining signallarini qabul qilib olishadi, xavfdan voqif bo'lishadi, yemish topishadi.



«SHUNCHAKI KUTIB TURUVCHI» YIRTQICH O'SIMLIKLAR

Deyarli barcha hasharotlar o'simliklar bilan oziqlanishini hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin hasharotlar bilan oziqlanadigan o'simliklar ham yo'q emasligini ko'pchilik bilmasa kerak. Bunday o'simliklardan eng mashhuri Amerika saraseni bo'lib, u Kanadada keng tarqalgan ekan. Oynayi jahon orqali namoyish etiladigan ilmiy ommabop filmlarda o'ta maftunkor, shaffof, juda yorqin tovlanuvchi o'simlikni ko'rganmisiz? Ana shu chiroyli o'simlik o'ta yitqich Amerika sarasenidir. Uni yana «Askar krujkasi», «Ovchi bug'usi», «Shayton botinkasi», «Kuvocha» ham deb atashadi. Darhaqiqat, uning joyasi atrofida katta bo'lib ochiladigan gul kuvachaga o'xshaydi. Gulning rangi o'ta yorqin bo'lgani bois, bo'g'zi atrofida

shirin nektar yig'iladi. Ana shu shirinlikdan bahra olishga intilgan hasharatlar kuvachaning ichki tarafidagi yumshoq, yopishqoq tuklarga kirib qoladilar. Shunda bu tuklar rostlanib, hashoratning ozodlikka chiqish yo'lini to'sib qo'yadilar. Hashorat esa pastga, suyuqlik yig'ilgan joyga tushib ketadi. Ana shu suyuqlik orqali yirtqich o'simlik o'ljasini osongina hazm qilib yuboradi.

Bunday yirtqich o'simliklarning har biri kuniga qirqqa yaqin hashoratni yamlamay yutar ekan.



Jajji Dilmurod kitobdagi suratlarni tomosha qilib o'tirib, hayron bo'ldi: -Dada, mana bu otlar o't yemay turaveradimi?..

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi:

ILON ROZI KETDI

-Har yili ta'til kunlarimni buvimnikida o'tkazaman. U yerning so'lim tabiati menga juda yoqadi. Talaygina dugonalar ham orttirganman.

Bir kuni bog'da qizlar bilan gulchambar yasab o'tirgandik. O'g'il bolalar, bu yerda ilon bor, deya bizni qo'rqtishdi. Biz esa ularning gaplariga parvo ham qilmadik. Jajji jiyanamni boshim uzra ko'tarib, o'ynatmoqchi bo'ldim. Jiyanim sevinchdan qichqirar, mitti qo'lchalari bilan so'ridagi uzumning barglarini tortqilardi.

Shu payt uzumning barglari silkina boshladi. Chumchuq bo'lsa kerak, degan xayolda o'yinni to'xtatmadim. Birdan barglar orasidan bir narsa osilib qoldi. Xoh ishonang, xoh ishonmang, bu kattagina ilon edi. Jiyanimni mahkam bag'rimga bosgancha, «ilon» deya baqirib, ura qocha boshladim. Boshqa qizlar ham bir zumda har tarafga tumtaraqay bo'lishdi.

Voqeadan xabar topgan buvim, ilonning ko'ngli to'lib ketsin, deb uzumning so'risiga un sepdilar. Birozdan so'ng ilon uzumning navdasidan tushib, allaqayoqqa o'rmlab ketdi.

-Ilon juda beozor jonivor. Odamlar ilgona tegishmasa, u ham odamlarga hech qanday zarar etkazmaydi, dedilar buvim boshimizni silab...

Bu voqea ilon haqidagi qiziq-qiziq hikoyalarga ulanib ketdi.



FLORA VA FAUNA

TOPIISHMOQLAR



Elning joni, Bo'lmaydi izi.
Giyohlar koni, Arzihol aytmas,
Uyilsa o'zi, Iziga qaytmas

Ko'rinmas tunda,
Pirpirar kunda.
Qo'shaloq shoxi,
Silkinar gohi.
Yaproqday tani,
Sen ayt-chi, G'ani?



Nuqraday tani,
Lol qilar sani.
Marjonday deysan,
Xinchasin yeysan.

(op4if)

Bir tutam dum bor unda,
Nog'ora chalar kunda.
Ilonni tutib yeydi,
Ko'rgan: «Yoz keldi!» deydi.

Chori BOBOMUROD o'g'li.

-Men kuchukcha boqyapman, dedi Dilmurod.
-Otini nima qo'yding?
-Sal kattaroq bo'lsin, keyin ot qo'yaman. Hozir u gapga tushunmaydi.

Yovvoyi hayvonlar tabiatning ajralmas bir qismidir. Ular o'rtasida yashash uchun kurash muntazam davom etib keladi. Tabiatda ojizlar halok bo'ladi, kuchli hayvon esa o'ljasi bilan qornini butlagach, o'zi ham undan kuchliroq'ining changalidan qo'rqqan holda hayotini davom ettiraveradi. Tajribali yirtqich o'ljasini uzoq vaqt ta'qib etadi va unga yanglishmay hamla qiladi. Hamlaning noxosligi o'ljani gangitib qo'yadi, muvaffaqiyatning teng yarmini ta'minlaydi.



Baliqtutar suvilon mitti baliqchani dumidan ilib olgach, bechorani quruqlikka sudrab chiqadi. Biladiki, baliqcha osongin sirg'alib chiqib ketishi mumkin, uchun kirishgan olishuv sahnasi eng Donishmandlik quruqlikda ham davom achenarli va fojeali tarzda tugaydi.



Qum qirqoyog'i tillaqo'ng'izni ta'qib etarkan, uni quvib etadi va qaychisimon keskir jag'lari bilan bechoraning dastlab bir oyog'ini qirib tashlaydi. Tillaqo'ng'iz qochib qutilmog'chi bo'ladi, ammo unga yetib olgan qirqoyog' yana bir oyog'ini kesib tashlaydi. O'rmlash imkoniyati qolmagan o'lja bir yerda gandarab aylanaveradi. Shunda qirqoyog' o'ljasining bo'yini keskir changallari orasiga oladi va boshini sapchida uzib tashlaydi.

-Jamshid, quyoning suratini top-chi. Jamshid kitobni varaqlab quyoning rasmini topa olmadi.
-Axir chopayotgan quyoning surati bor edi-ku, nega topa olmayapsan?
-Chopayotgan bo'lsa, o'rmonga qochib ketgandir-da!..

BILASIZMI?

Tuyaqushning tuxumi tovuq tuxumidan 36 marta og'ir bo'ladi.



Dunyodagi eng kichik boyo'g'li Shimoliy Amerikada yashovchi Elf boyo'g'lisi bo'lib, uning kattaligi chumchuqday keladi.

Kakkularning hammasini ham ovozi chiqavermaydi. O'rmonlarda eshitiladigan «kak-ku» degan ovoz nar kakkuning modasini chaqirgan ovozidir.


Qulog'i juda uzun bo'lgan Amerika quyoni soatiga 56 km. tezlik bilan yugura oladi va o'z badanidagi suv bilan tanasini sovutadi.



Yovvoyi qo'ylar o'tlarning 570 xilini yeydi. Boshqa hech bir hayvon bunchalik ko'p o't turini yemaydi. Qo'ylarga qoraqurt kabi zaharli hasharotlarning zahari zarracha ham ta'sir qilmaydi.

Kolumbiyaning tropik o'rmonlarida tanasining isti qora va sariq yo'lli zaharli baqa yashaydi. Uning terisidan ajralib chiqadigan zahar eng zaharli ilonlar zahridan ham kuchliroqdir. Bir necha asrlardan beri avorigenlar ov nayzalarining uchiga shu zahardan surib keladilar va u tekkan jonivor albatta halok bo'ladi.

Barcha yirik yirtqichlar orasida eng yuragi kichigi qaysi hayvon ekanligini bilasizmi? Bu eng qo'rqmas va kuchli hayvon sherdir.



Jirafalarning faqat bo'yi emas, tili ham juda uzun bo'lib, tilining uzunligi 60 santimetrga yetadi.

TAYI qoshidagi Uchtepa akademik litseyining 3-bosqich talabasi Zilola YUNUSOVA to'plagan.

HADDAN OSHGAN QO'ZICHIQ

(Voqeiy hikoya)

Tongga yaqin qo'y-qo'zilarning vahimali ma'rashi, gupur-gupuridan uyg'onib ketdik. Shamdon bilan qo'yxonani yoritib, bir ona qo'yimiz burchakda oyoqlarini uzatgancha o'lib yotibdi. Boshqa qo'ylar bir burchakka qisilib olishgan, yaqindan tug'ilgan qo'zichoq esa onasining jonsiz tanasini hidlab-hidlab, zaif ovozda tinimsiz ma'rardi.

Jajjigina qo'zichoq onasini qo'msab tinimsiz ma'rar, qorni ochganidan boshqa qo'ylarni emishga intilardi. Qo'ylar esa uni o'zlariga yaqin yo'latmasdilar. Yetim qo'zini sigir suti bilan boqa boshladik. Shundan so'nggina u biroz tetiklashdi va shishadan sut ichishga o'rganib qoldi. Hatto

qo'yxona panjarasidan sakrab biz yashaydigan xonaga sut izlab keladigan bo'ldi.

Bir kuni akam qo'zichoqni tutib, amshug'ini sigirning yeliniga tutdi. Qo'zichoq ham o'z ko'zlik bilan ema boshladi. Buni qarangki, boshqa buzoqlarni hatto yaqiniga ham yo'latmaydigan sigir qo'zichoq qornini to'ydirib olguncha qimirlamay turib berdi.

-Yetimligini biladi-da, dedi akam. -Hayvonlarda ham rahm-shavqat hissi bo'larkan-da...

Oradan kunlar, oylar o'tdi. Boshqa qo'zichoqlar alqachon ohurdan ovqatlanishga o'tgan bo'lsa ham, yetim qo'zini sigirning atrofidan nari ketmasdi. Hatto sut talashib burchagini suzmog'chi ham bo'lardi. Haddan oshib ketgan qo'zini sigirning o'zlariga yaqin yo'latmayib qo'ydi: pishqirib yoniga kelmasdi. Kiralik qilib suykalavergach, sekingina tepib, o'ziningni o'zing ko'r, dedilar dadam uning yunglarini silab.

Nasirjon MANJALIYEV,
Namangan viloyati, Uychi tumani, qishlog'i.



DARAXTLAR

Daraxtlar yashil o'rmon, Saxovatda yagona. Sizlar bizga qadrdon, Mehribon, g'amxo'r ona. Kuz taqadi tillaqosh, Oq choyshab o'rar bo'ron. Yozda ko'tarmaysiz bosh, Mevdan taqib marjon. Erkalab sizni bahor, Guldan bichadi ko'ylak. Sizga omonlik tilab, Tabiat tilar tilak.

Nigora RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi
2 - ixtisoslashtirilgan maktabning 5 - sinf o'quvchisi.



Aziz bolajonlar! E'lonni ko'rib yana yangi filmmi, unisiga tushsak buni qolib ketyapti, har kuni yangi kino, deb o'ylayotgandirsiz? Yo'q, bu film avvalgilarga o'xshamaydi ham, ularni takrorlamaydi ham. Yaxshisi bu haqda rejissyor Buxon SHAROPOV bilan bo'lgan suhbatni o'qisangiz, oila a'zolaringizga va sinfdoshlaringizga shu filmga tushishni tavsiya qilishingizga ishonamiz:

- Har bir asar kinomi, musiqami, hatto oddiy tasviriy

san'at bo'lsin, insonga nimadir berishi kerak. Siz «Egizaklar» orqali yoshlarga nima bera olasiz?

- Bolalikdan o'tdim, degani bilan inson fe'li bolaligicha turadi. Bir ishni noto'g'ri qilma, desangiz, ataydan qiladi. Siz do'q qilmay, asta-sekin shu ishni noto'g'riligini ongiga singdirib borsangizgina, yutasiz. Men ham film orqali yoshlar qalbiga ozgina ezgulik, mehr tushunchalarini singdira olaman, deb o'ylayman. Yoshlarga ma'naviy ozuqa voqealar rivojida beriladi. Ungacha tomoshabinni liboslar, tanlangan tabiat manzaralari orqali chalg'itib turib, o'z fikrimni bildirganman.

- Nomidan ko'rinib turibdiki, bu egizak opa-singil yoki aka-uka haqida

Poytaxt kinozallarida «Egizaklar» filmi namoyish etila boshlanadi. Bosh rollarda: Gulchehra Eshonqulova, Sharof Muqimov. Bundan tashqari, el sevgan san'atkorlardan Elyor Nosirov, Hojiakbar Komilov, Barno Qodirova, Bobur Yo'ldoshev, Uchqun Tillayev, Melis Abzalov, Lola Ergashevalar suratga tushganlar.

bo'lsa kerak? Egizaklar haqida hind kinoijodkorlari «Zita va Gita», koreys kinoijodkorlari «Egizaklar» filmlarini yaratishgan. Yangi film shu filmlarning davomi bo'lib qolmaydimi?

- Egizaklar har bir millatda bor. Ular kino olibdi deb biz qo'l qovushtirib o'tirmaymiz-ku. Menda bu filmning g'oyasi 2000-2001-

ko'ra, bor mahoratini ishga solib rol ijro etyapti. Masalan, Uitni Xyuston (Tan qo'riqchisi), Jenifer Lopes (Oqsoch xonim), Madonna, Andreano Chelentanolar ijro etgan rollarga tan bermay iloj yo'q», degan edilar. Mening filmimga kelsak, hammasi kino sohasida tomoshabinga yaxshi tanish bo'lgan professional, ustoz ko'rgan aktyorlar. Hatto Sharof Muqimov ham bir nechta filmga suratga tushib, o'z malakasini oshirgan.

- Bir-bir yarim soat davomida tomoshabin diqqatini jalb qilib o'tirishning o'zi qiyin. Shunga javob bera oladigan film olish undan qiyin bo'lsa kerak?

- Bilasizmi, kino olishni oson ish deb o'ylashadi. Lekin buning tagida yotgan

Yangi kino

o'zimni sinab ko'rgunimga qadar ming chig'iridan o'tganman. Rejissura sohasida o'z ko'rsatuvlarim bilan tomoshabinlarimga ega bo'lgan bo'lsam, boshlovchilik qilib «7 dan 70 gacha» ko'rsatuvi orqali muxlislar juda yaxshi tanishadi. Filmga kelsak, uni o'z tomoshabinini topa olishiga ishonaman, chunki unda zamona nafasi ufurib turadi va jahon standartiga javob bera oladi. Buni filmni bir bora ko'rgan har bir tomoshabin sezishi mumkin. Hali katta ekranga chiqmagan filmga shuncha bahomi, deyingiz mumkin. Lekin bitta film olish uchun men butun umrim davomidagi ish tajribamni, hayotiy tajribam bilan uyg'unlashtirib harakat qildim. Mening xayolimni ro'yobga chiqarishga yordam bergan aktyor va aktrisalariga ming rahmat aytaman.

- Film mazmuni haqida ozgina so'zlab

«7 DAN 70 GACHA» NEGA TO'XTADI?

mashaqqatlar, uyqusiz tunlar ko'zga o'tsangiz? ko'rinmaydi. Men kino sohasida

- Yuqorida aytganidek, «Zumrad va Qimmat» kabi bosh qahramonlarim Laylo - aqli, Zahro - shaddod qiz. Film boshi tomoshabinga berilgan tugun so'nggiga kelib yechiladi. Shu vaqt davomida kuy-qo'shiq, qiziq komediyalarga boy sahnalar orqali tomoshabin zerikib qolmaydi. Endi qolganini filmni ko'rib, bilib olishadi.


- «7dan 70 gacha» nega to'xtab qoldi desak, badiiy filmlar ustida ishlayotgan ekansiz-da! Sizdan ham, O'z TVda, ham katta kinozallarda yangi asarlar kutib qolamiz. Qiziqarli suhbatingiz uchun rahmat.



Uchrashuv

Aziz bolajonlar, «Bevafo yor», «Yomg'irlar» qo'shiqlari orqali sizga yaxshi tanish bo'lgan xonanda Abduvali RAJABOV bugun sizlarga o'z orzulari va bolaligi haqida so'zlab beradilar:

-Bolaligim Sirdaryoda, maktab davrim esa Sirdaryodagi 6-o'rta maktabda o'tgan. Bolaligimda juda sho'x bo'lganman. Ishonasizlarmi, maktabda 2-3 baholarga o'qiganman. 4 olgan kunim men uchun bayram bo'lgan. Shuncha to'polonchi va sho'xligimga qaramay ustozlarim ham, maktabimiz rahbari ham menga juda yaxshi munosabatda bo'lishardi.



Abduvali Rajabov

bo'laman, deb yurdim. Va nihoyat, 6-7 sinfda o'qib yurgan kezlrimda men katta bo'lsam mashhur qo'shiqchi bo'laman, deb niyat qilardim va orzuimga deyarli yetdim.

-Ustozlar haqida ham to'xtalib o'tsangiz?

-To'g'risi, biror mashhur san'atkorga shogird bo'lmaganman. Ustozlarim - o'zim o'qigan Estrada-sirk kollejining o'qituvchilari. Ulardan juda ko'p narsani o'rgandim. Hozirgi kunda esa Teatr va rassomchilik institutining musiqali drama fakultetida bilimimni mustahkamlamoqdaman.

-San'atkorlarda bo'sh vaqt juda kam bo'ladi. Siz bo'sh vaqtangiz

BITTA DAFTAR BILAN MAKTABGA...

Chunki jamoat ishlarida juda faol edim. O'qimasam ham 1 ta daftar ko'tarib maktabga kelsam bo'lgani edi. «Rajabov» deganda «Labbay» desam yetardi. Lekin, to'g'risi hozir o'sha davrlarning qadriga yetib mukammal o'qimaganimga achinaman. Chunki bir marta qo'qildim. Teatr va rassomchilik institutiga hujjat topshirmasimdan avval Tish texnikasi sohasiga topshirib omadimni sinab ko'rdim. Lekin bilimim yetmadimi, talaba bo'lish nasib etmadi. Ana shundagina o'yinqaroqlik bilan o'tgan damlarimdan afsuslandim.

-Har bir bola o'zidan kattalarga havasmi, taqlidmi qilib, bolaligida orzular osmonida uchadi. Siz kim bo'lishni orzu qilgansiz?

-Mening orzularim juda ko'p bo'lgan. Mashinalarga qiziqqanim uchun kichkinaligimdan men haydovchi bo'laman, derdim. Keyinchalik harbiy kiyimga havas qilib militsioner, uchuvchi

bo'lib qolsa nima bilan shug'ullanasiz? Xobbingiz?

-Xobbi emas-u, lekin bo'sh vaqtim bo'ldi deguncha yaqin do'stlarim davrasiga shoshilaman. Men uchun do'stlarim bilan vaqt o'tkazishdan ko'ra qiziqarliroq mashg'ulot yo'q.

-Shioringiz?

-Bizning kasbda shior nima ham bo'lardi: Faqat olg'a intilish va tinimsiz mehnat, izlanish.

-Muxlis va muxlisalaringiz bo'lgan bolajonlarga tilaklaringiz?

-Bilasizmi, har bir bola bir nihol. Niholni qanday parvarish qilsangiz, kelajagi shunga bog'liq bo'ladi. Bolajonlarga tilaklarim - faqat yaxshi tomonga yo'llovchi ota-onalari va ustozlariga doimo quloq solib, kelajakda baxtli va ota-onalari orzulagandek o'g'il-qizlar bo'lib voyaga yetishsin. Maktablarida faqat a'lo baholarga o'qishsin.

-Sizga ham ishlaringizga muvaffaqiyat tilaymiz.

SOVG'AGA - NEGA QUYON?..

Qutlov

Mustaqillik bayrami arafasida Respublikamizning bir qator san'atkorlari yuksak mukofotlar bilan taqdirlandilar. Shulardan O'zbek Milliy akademik teatrining rahbari Yoqub Ahmedov «Mehnat shuhrati», aktyor Yodgor Sa'diyev «Mehnat shuhrati», aktyor Tohir Saidov «Xizmat ko'rsatgan artist» unvonlariga sazovor bo'ldilar.

Kuni kecha teatr jamoasi bir piyola choy ustida o'z hamkasblarini qutladilar va ularga o'z sovg'alarini topshirdilar. Sovg'a esa... O'yinchoq quyvon. Buni hamma har xil talqin qildi. Teatr jamoasi o'z faollarini quyvonlar kabi keyingi pog'onalarga ham tez sakrab yetib olishlarini tiladilarmi, buni qorong'u. Yig'ilishdan so'ng suhbatda xizmat ko'rsatgan artist Tohir Saidov bolajonlarga o'z tilaklarini bildirdilar:

- Har bir inson bu dunyo tamadduniga yaxshi bo'lsa bir g'isht qo'yib o'tadi, yomon bo'lsa bir g'isht ko'chirib o'tadi. Men hamma bolajonlarning yuksak bilimli bo'lib, yoshlikda olgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir, degan hikmatli so'zlarning mag'zini chaqib ulg'ayishlarini xohlardim. Bu hayotda bir kasb tanlashda, masalan, aktyorlik, albatta bir kuni mashhur bo'laman, unvon, orden-medal olaman degan niyat bilan bo'lmasligi kerak. Siz shuhratning ortidan quvmang, agar mehnatingiz hammaga foydali bo'lsa, elning duosini olsangiz, shon-shuhratning o'zi sizni izlab keladi.



Sahifani Ma'suda VOHIDOVA tayyorladi.

Aziz bolajonlar! Kuni bo'yi ishda yoki boshqa yumushlar bilan band bo'ladigan otalaringizni sizning maktabda qanday tahsil olayotganingiz-u, hulqingizdan ogoh etuvchi vosita nima ekanligini albatta bilasiz-a? «Kundalik» daftari deysizmi, juda to'g'ri. U har biringizning yil davomida nimalarga qodirligingizni jamlab boruvchi, a'lo va yaxshi baholaringizdan quvonuvchingiz, past baholaringizdan esa kuyunuvchingizdir. Kundaligingizni hamisha toza va ozoda saqlang. U maktabdagi sinovlaringiz samarasini ko'rsatuvchi do'stingiz.

Shuning bilan birga siz uchun bejirim, hoshiyalari qulay, yozuv chiziqlari aniq-ravshan kundalik daftarlar ishlab chiqarayotgan aka-opalaringizning ham mehnatini qadrlagan bo'lasiz.

Ushbu tayyorlanayotgan kundalik daftarlar «O'zbekiston» Nashriyot Matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etilib, Respublikamiz va qo'shni Tojikiston Respublikasidagi maktab o'quvchilari uchun yuborilmoqda. Mazkur jamoada o'z kasbining fidoiylari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning chaqqonligi, mehnatsevarligini ko'rib ko'zingiz quvonadi. Kishi o'z kasbining sir-asrorini ipidan-ignasigacha qunt bilan o'rgansa aslo kam bo'lmaydi. Shogirdlikdan ish ustasi, boshqaruvchi, rahbar darajasigacha bo'lgan mashaqqatli yo'lni bosib o'tish

KUNDALIK DO'STINGIZ

kishidan katta mehnat talab qiladi. Kishining o'z kasbiga mehr qo'yishi g'oyat samarali bo'lgani kabi, Rustam Imomov, Javlon Eshmuhammedov, Ella Kim, Abdug'affor Sultonovning sa'y-harakatlari bois dam olish kunlari ham bu yerda ish qizg'in.

Mehnat faoliyatini



muqovalovchi kasbidan boshlagan

Sevara Qosimova bugungi kunda ish ustasi. So'zi bilan ishi birligi, shirinso'zligi, ishbilarmonligi bois ko'pchilik o'rtasida obro' topganlardan.

-Ota-onamizning biz farzandlarga qarata hamisha takrorlaydigan, sidqidildan qilingan mehnat har bir kishiga obro'-e'tibor keltiradi, degan o'gitlari hamisha yodimda. Dastlabki ish boshlagan kezlarimda, har bir

kasbning o'ziga yarasha mashaqqati borligini anglagandim. Ustozlarim Abdumalik Majidxo'jayev (marhum), Azimjon Rixsiyev, Vitaliy Kim, Oybek Gayupovdan kasbimning nozik sirlarini qunt bilan o'rgandim. Ulardan bir

Havas

umr minnatdorman. Ustozlarimdan o'rganganlarimni endilikda shogirdlarimga o'rgatayapman. Bizning Xalq iste'moli mollari bo'limimizda Mahbuba Halilova, Farida Nishonova, Muhabbat Mirzaqodirova, Muhtabar Sodiqova, Mahbuba Hasanova, Zuhra Fayziyeva, Sergey Najmiddinov, Alisher Sodiqov, Baxtiyor Baratov kabi o'z kasbining jonkuyarlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning sidqidildan qilayotgan mehnatlarini ko'rib ko'zingiz quvonadi. Ahillik bor joyda baraka bo'ladi. So'zi bilan ishi bir bo'lgan jamoada yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning bilim- tajriba orttirishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilgan. Bu borada malakali ustozlarining yo'l-yo'riqlari qo'l kelmoqda.

Ushbu jamoa ahli bir kunda 80000 nusxada o'quvchilar uchun bejirim kundalik daftarlarini tayyorlab iste'molchilarga yetkazib beryapti. «Rangli, bezakli, sifatli kundaliklarimiz bugun farzandlarimiz va bilimli o'quvchilarga xizmat qilayotganidan shodmiz», -deydi ular.

Jamila ERDONOVA.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Axir hech vaqtda odam o'z qovuniniyam o'zi ovlaydimi? Ovlab nima qiladi? Shundog'am olovurmaydimi? Yana Ko'ktoy bilan ovlarmish. Nimaga endi Ko'ktoy bilan? O'ziniyam iti borku? Ertadan-kechgacha tut tagida bog'log'liq, angillab yotadi. Yana bu ovning oymomaga bog'lab qo'yilgani g'alati. Oymoma bo'lsa ha deganda Karim aka aytgan «miyya»ga kelaqolay demasdi.

Kayfi tarqab bo'ldi shekilli, Karim aka tilini bir qarich qilib tupurishni bas qildi. Og'ir tortib, dardmand odamdek, ingranib, chuqur-chuqur xo'rsinib qo'ydi. Ming'irlagan ovozda dedi:

- Rostiylarni aytiylar ukalar... shu...

Karim aka qandaydir aytib bo'lmaydigan gapni aytmochi bo'lardiyu ikkilanardi. Biz Karim akaga yon-atrofdan tikilib qolgan edik.

- «E quyosh...» yaxshi chiqdimi? - dedi u entikib.

- Zo'r...

- Kinodagidaqami-a, aldamayap-sanlarmi? - yosh boladek umid bilan so'radi u.

- Xuddi o'shanaqa, ha...ha Karim aka, paqat choladiganlari yo'q-da, - deb chug'urlyamiz biz.

Karim akaning g'amgin yuzlari oy nurida chiroyli bir turlanib ketdi. Qo'shiqni qayta boshlamoqchiday tomoq qirib qo'ydi. Keyin yonboshlab yotgan Qo'chqorga qaradi.

- Sen uka, xafa bo'magina?

Qo'chqor hayron bo'lib yotgan joyidan turib, chordona qurib o'tirib oldi. Karim akaga hayron bo'lib qaradi. Karim aka bizlarga o'girilib so'radi:

- Nima deysizlar? Eshitdimikin-a, «E quyoshni...»?

Biz bir-birimizga qarab oldik. Karim aka shunaqa ipakdek mayin tortib, sirli qilib so'radiki...

- Kim eshitadi, Karim aka, kim? Kutilmaganda bizning ham ovozimiz mayinlashib, sirli tus oldi.

- Gulsum-da, Gulsum, - dediyu, Karim aka «o'o'o'o'h...» deb yubordi.

Qo'chqor shartda boshini pastga egib oldi. Gulsum uning xolavachchasi. Kolxozchi qizlar orasida eng chiroylisi. O'g'il bolalardek shaddod, quvnoq. Gulsum opaga oshig'u beqaror bo'lganlarning son-sanog'i yo'q. Bundan chiqdi Karim akaniyam yuragidan urgan ekan-da.

- Bilasizlarmi, ukalar, - dedi Karim aka xo'rsinib, - meni ichimam-tashimam lovullab yonib yotibdi... Eh... buni boshlaringga tushganda bilasanlar. Oh... Men bu dunyoda Gulsum borligi uchun yuribman. Bo'lmasa yashashni xecham qizig'i yo'q. Bugun «Bayanshirin» obkelib ko'p yaxshi ish qildilaring. Bir yozildim-da. Ha, ko'nglim bo'shadi, ukalar. Ishqilib «E quyosh...» Gulsumning qulog'iga yetgan bo'lsin-da.

- Sovchi qo'ying, - dedim.

- Oh, qaniydi, tilginangga shakar, ukaginam. Bu hech bo'maydigan ish. Biz kimmiz, kelgindimiz. Peshonamizda quloqning bolasi degan tamg'a bor. Begona itning dumi qisiq bo'ladi. Gulsum kim? Osmondagi oy-ku u. Sovchi qo'ying—mish-a...

Qo'chqor boshini yerdan ko'tardi. «Bilib qo'ylaring, biz shunaqamiz» degandek bo'ldi go'yo.

Birdan hammamiz jimib qoldik. Ov

ham esdan chiqdi xuddi bu yerga Karim akaning dardini eshitgani kelgandek.


- Men o'z yurtimda bo'lganimda bormi, - dedi Karim aka jimlikni buzib, - do'pim yerga tushsa pulga oldiradigan boyvachcha bo'lardim. Bu yerda mana yozda polizga qorovulman, qishda idoraga.

U do'ppi o'miga boshiga tang'ib olgan oppoq durrani yechib, qayta bog'ladi. Oyga qarab:

- Vaqt ham bo'p qopti, - dedi va keti

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



bilan narvonga qarab surildi. - Orqamdan shovqin ko'tarmay tushinglar. Hammamiz soqovmiz - tamom.

Pastga tushsak Ko'ktoy ham bir nimani sezgandek quloqlarini ding qilib, qotib turibdi. Ko'zi polizda. Karim aka

Erkin MALIKOV

nimagadir Ko'ktoyni pana qilib cho'nqayib o'tirib oldi. Biz ham cho'nqaydik. Oymoma naq miyyaga kelgan. Soyamiz yo'qolgan. Dalalar oy nurida cho'milib yotar, tiq etgan tovush yo'q. Hatto chirildoqlar ham bir nimani kutgandek jimib qolgan. Quloqlarim shang'illab, yuragim gup-gup ura boshladi. Biz bir-birimizga suyanishib, g'uj bo'lib o'tirardik. Ko'ktoy hamon bo'ynini oldinga cho'zgancha hid olar, quloqlari hali u yoqqa, hali bu yoqqa borib kelardi. Shu payt birdan qarsillagan «o'q» ovozi eshitilib qoldi. Biz cho'chib tushdik. Ko'ktoy turgan joyida bo'ynini bukib bir cho'kdiyu, yugura ketdi. «Ketdik» dedi Karim aka Ko'ktoyning orqasidan tushib. Qayerdandir yana «o'q» ovozi eshitildi. Ko'ktoy qovun palaklarini bosib chopardi. Biz uni qora qilib, egatdan egatga o'tardik. Nihoyat Ko'ktoy bir joyga yetib, iskalana boshladi. Karim aka o'sha joydan bitta katta qovunni uzib oldi-da, menga tutqazdi:

- Chop, chaylaga tashlab ke...

Ko'ktoy endi boshqa tarafga qarab chop ketdi. Karim aka bolalarni o'sha tomonga boshladi. Qovunni chaylaga tashlab qaytayotsam sheriklarimam birin-ketin qovun qo'ltiqlab kelishyapti. Karim aka Ko'ktoyning orqasidan hali u yoqqa, hali bu yoqqa chopib yuribdi. «O'q» otishlar uzoqqa cho'zilmadi. Shu bilan «ov» ham tugadi. Chayla tagiga ancha-muncha qovun to'plandi. Ular shunaqangi xushbo'y ediki, hidi dimoqqa kirib ishtahani qitiqlardi. Lekin hammasi tars-tars yorilgan edi. Qovunlar yorilganda miltiqqa o'xshab ovoz berar ekan.

(Davomi bor).

BIZNI SEVIB ASRAGAN

O'tgan asrning 60-yillari. Xuddi mana shunday kuz, paxta mavsumi. Biz, shaharlik o'quvchilar ham 6-sinfidan boshlab ko'rpa-to'shagimiz bilan dalalarga borib, o'sha yerda yotib paxta terishga majbur edik. Hozir 12-13 yoshli bolalarga qarab hayron bo'laman. Shunchalar yosh, jismonan nozik niholga monand bolalar hech qanaqa sharoiti bo'lmagan dala shiyponlarida, omborxonaga o'xshagan binolarda qanday yashagan ekanmiz?..

Xullas, hamma sinfdoshlarim yotoqqa paxtaga ketishdi-yu sog'lig'im tufayli, aniqrog'i, kamqonligim sababli ota-onam meni paxtaga yuborishmadi. Har kuni uyimizga muallimlarimizdan biri kelib, paxtaga bormasam bo'lmasligini, bu siyosiy tadbirdan chetda

olib borasan, deb talab qilishadi. Bu ahvolda qanday qilib paxta teradi bu qiz? - dedilar asabiy bo'lib.

Shunda tushundimki, biz - o'quvchilarning paxtaga borishimizni, qiyin sharoitlarda, ota-onamizdan yiroqda yashashimizni o'qituvchilarimiz sira istashmas ekan-u, o'sha zamonning siyosatiga bo'ysunishiga majbur bo'lgan ekanlar...



hech ovozim chiqmaydi. Bu hol uzoq davom etdi. Har gal gazetada she'rlarim bosilib chiqqanda, direktorimiz albatta hammani davraga, meni quvonch, iftixor bilan o'rta chiqarardilar. Ana shunday yig'irlarda men bora-bora ovozim qaltiramasdan, hayajonlanmasdan gapirishga

o'rgandim.

Hamma fanlardan «a'lo»ga o'qirdim. Lekin maktabni bitirayotganimizda ko'pchilik o'qituvchilar boshqa bir sinfdoshimni «Oltin medal» oladi, deyishardi. Chunki uning ota-onasi toparmon-tutarmon. Mening esa dadam ishchi, o'sha paytda og'ir xastalik bilan

CHIN
USTOZ FAZILATLARI

Men o'zimning adabiyotga, she'riyatga kirib kelishimda Marg'ilondagi 8-o'rta maktab direktori Mahmudxon

Dadaxonovning hissarlari juda katta deb bilaman.

Esimda, 8-sinfda o'qirdim.

Shahar gazetasi «Marg'ilon haqiqati»da to'rt qator mashqiy satrlarim bosilib chiqdi:

Mehribon o'qituvchim,

Ilm bog'ida bog'bon.

Umrimga nur berib chin,

Meni qildingiz shodon.

Aslida shu to'rt qatorning yarimidan ko'p mehnati gazetaning adabiyot bo'limi boshlig'i Mamadali Umarovga tegishli edi. Kutilmaganda maktab hovlisiga majlis chaqirildi. Dadaxonov qo'llarida gazeta bilan o'rta chiqdilar-da:

-Bugun bizning maktabimiz uchun juda katta quvonchli voqea bo'ldi, deb gap boshladilar. Maktabimiz o'quvchisi Muhtarama Ulug'ovaning she'ri (aslida she'r deb aytishga juda erta edi) gazetada bosilib chiqdi.

Direktorimiz shunday deb gazetani baland ko'tardilar, to'rt tomonga aylanib ko'rsatdilar, keyin meni o'rta taklif qildilar. O'sha to'rt qator mashqni o'zim o'qib berishimni so'radilar.

Sira yodimdan chiqmaydi: qo'limdagi gazeta dir-dir titraydi, hayajonlanganimdan

shifoxonada yotgandilar. Oilamizda hech kimning ko'ngli chiroq bilan ham yorishmas edi. Maktabni bitirganlik haqidagi attestatni olishga oddiy uy bekasi onam bilan bordik-da, zalning oxirgi o'rindiqlaridan joy oldik.

-Bu yil maktabimizni bir o'quvchi «Oltin medal» bilan bitirdi, deb gap boshladilar M.Dadaxonov. - Bu - Muhtarama Ulug'ova...

Hammaning hayronligi yuz-ko'zidan ko'rinib turardi. Chunki ular «Oltin medal» butunlay boshqa o'quvchiga beriladi degan ishonchda edilar.

Bu satrlarni o'z-o'zimni maqtash maqsadida emas, balki haqiqatgo'y, halol, aziz, oliyjanob inson Mahmudxon Dadaxonovning chin ustoz, chin rahbarlik fazilatlarini dalillash uchun yozayotganligimni tushunasiz, deb o'ylayman...

Muhtarama ULUG'OVA,
Respublikada xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi.

ustoz turish yaxshilikka olib bormasligini aytardi. Biz hammamiz o'qituvchilardan xafa bo'lardik.

Nihoyat, paxtaga ketadigan bo'ldim, chunki boshqa iloj qolmadi. Maktabga ko'rpa-to'shagim bilan eltib qo'yishdi. Yuk ortiladigan mashinaning orqasiga mening narsalarimni chiqarishdi, kabinaga direktorimiz - matematika o'qituvchisi Yu.Hakimov bilan men o'tirdik. Dalaga yetib kelganimizda, maktabdagilarim shiyponda tushlik qilib o'tirishardi. Mashinada maktab direktori kelganini ko'rib, bir necha o'qituvchi o'rinlaridan turdilar, yonimizga kelib, Yu.Hakimov bilan so'rashishdi.

Darvoqe, yo'l-yo'lakay direktorimiz ancha asabiy edilar, bunga sabab, mening o'z vaqtida paxtaga bormaganim bo'lsa kerak, deb o'ylab kelgandim. Lekin...

Hakimov o'qituvchilar bilan so'rashib bo'lgach, menga ishora qilib:

-Mana bu qizning rangini qarang. Kamqonligi, quvvatsizligi shundoq ko'rinib turibdi. Shuni aytсам, shahar boshliqlari tushunmaydi. Qanday bo'lmasin, paxtaga

Ochil dasturxon



OSHIRMA PIROG

Masalliqalar: 100 g. xamirturush, 500 g. un, tuz 1/2, 150 g. mayiz, 150 g. saryog', 3 dona tuxum, vanilin.

Ustiga bezak uchun qand upasi, 1/3 tuxum.

Unni yarmi hamirturush bilan aralashtirilib, isitilgan sut qo'shiladi va issiqroq joyga qo'yiladi. 40-60 daqiqa turgach, un, tuxum, vanilin aralashtirilib, yana 40-60 daqiqaga qo'yiladi. Xamir ko'tarilgach, mayizga qolgan un qo'shib, yana 20-30 daqiqaga qo'yiladi. O'simlik yog'i yordamida ko'tarilgan xamir uzunchoq shaklga keltiriladi va yana ko'tarilguncha qo'yiladi. Ko'tarilgunga qadar tuxum oqi shakar bilan ko'pirtirilib qo'yiladi. Xamir ustiga surilib, qizigan gaz pechiga qo'yiladi va 30-40 daqiqa pishiriladi. Tayyor pishiriq sovutilib, dasturxonga tortiladi.

TUXUMLI DO'LMA

1. Qotirilgan non ustiga ozroq sut qo'shiladi. Piyoz to'rtburchak shaklda to'g'ralib, yog'da qovuriladi va unga ozroq qiyma qo'shib, hammasi aralashtiriladi. Kartoshka qaynatilib, pishgach, pyure qilinadi.

2. Yaxshilab pishirilgan qiyma qattiq qilib qaynatilgan tuxumga o'raladi va pishiqlanadi. Tayyor tuxum do'lmalari yog'da oltin rangga kurgunga qadar aylantirib olinadi va salfetkaga yog'i chig'qib ketishi uchun o'raladi. Tayyor do'lmalari, oldindan tayyorlab qo'yilgan garnir bilan dasturxonga tortiladi. Uni ko'katlar va pomidor bodring bilan bezatishni ham unutmang.

Yoqimli ishtaha!

Nargiza ABDULLAYEVA.

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 13857

Buyurtma N: J 1667

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek

ESHCHANOV.

Navbatchi:

Ma'mura

MADRAHIMOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzili:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10

144-63-08

Tel/ faks:

(99871) 144-24-45